

**GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLARNING MA’NAVIY
XAVFSIZLIGINI TAMINLASH MASALALARI**

Turabekova Jamila

O’zMU Jizzax filiali

Email: jamilaturabekova70@gmail.com

Mavlonova Sitora

O’zMU Jizzax filiali

Email: mavlonovasitora2003@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahonda globallashuv jarayonining tobora shiddatli tus olayotganligi, dunyo mamlakatlarining inson manfaatlariga xizmat qiladigan tom ma’nodagi demokratik yo’lni tanlab olishga bo’lgan intilishlarining kuchayganligi, bir sharoitda axborotning roli kun sayin ortib borayotganligi, insoniyatning axborotlashuv sohasida inqilobiy o’zgarishlarni boshidan kechirayotganligining o’ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: zo’ravonlik va shafqatsizlik g’oyalaridan himoya, sog’lom turmush tarzi, ma’naviy immunitet, globallashuv.

XXI asr jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartib, tamadduniy bosqich mazmun-mohiyati, davlatlar va kishilar o’rtasidagi o’zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozorida tamoman yangicha vaziyatning vujudga kelishi, atrof-muhitga texnogen ta’sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, informatsion-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xuruqlar xavfining ortib borishi, globallashuv, axborotlashuv jarayonlarining jadallahishi bilan xarakterlanadi. O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov globallashuvning jarayonining mazmun-mohiyati xususida to’xtalib, uni quyidagicha tavsiflagan edi: “...globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma’noni anglatishini ta’kidlash lozim. Umumiy nuqtayi nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma’no-mazmundagi xo’jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda”.

Sir emaski, jahonda globallashuv jarayoni tobora shiddatli tus olayotgan, dunyo mamlakatlarining inson manfaatlariga xizmat qiladigan tom ma’nodagi demokratik yo’lni tanlab olishga bo’lgan intilishlari kuchaygan bir sharoitda axborotning roli kun sayin ortib bormoqda. Bugungi kunda ishlab chiqarish rivojini axborotsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Zamonaliv axborot tizimi kompyuter va axborot tizimi, mahalliy va global tarmoqlar, internet tarmog’i, multimediali texnologiyalar va boshqalarni o’z ichiga oladi. Ular jamiyatning rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi. Insoniyat axborotlashuv sohasida inqilobiy o’zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Bir so’z bilan aytganda, axborotlashgan jamiyatda yashamoqdamiz. Xo’sh, ayni damda ushbu shiddat bilan kechayotgan jarayonning inson psixikasiga ta’siri qanday? degan savol tug’iladi.

Darhaqiqat, globallashuv jarayoni hozirda hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelmoqda. Globallashuv jarayonidan ikki xil maqsadda - ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Ezgulik yo'lidagi harakatlar davlatni va jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan bo'lsa, yovuzlikni maqsad qilgan esa buning tamomila aksidir. Globallashuv jarayonida tahdidlar masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, u barcha sohalarda bo'lgani kabi yoshlar ongi, psixikasi hamda ma'naviyatga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Dunyoda axborot almashinuvining o'sishi bilan yoshlar madaniyatiga ta'sir etuvchi ma'naviy tahdidlar ham insoniyat oldiga yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Chetdan kirib kelayotgan yot g'oyalar, ayniqsa, yoshlar ongini individualizm, egotsentrizm kabi tushunchalar bilan zaharlovchi ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga aylanmoqda.

Mamlakatimizda yosh avlodni jismonan sog'lom, aqlan yetuk, intellektual salohiyatlari etib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi mamlakatimiz yoshlari uchun ulkan islohotlar olib borildi. Bu esa o'z navbatida shuni anglatadiki, Davlatda yoshlar qatlami eng muhim o'rinda ekanligini ko'rsatadi. Dunyoning istalgan mamlakatida yoshlarga bunday ulkan e'tibor 251 qaratilmagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, 2018 yilning 27 iyun kuni Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to'g'risida”gi farmoni bu borada olib borilayotgan keng ko'lamdagagi islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Mazkur hujjatga muvofiq 2018 yil 1 iyuldan boshlab respublikamizning barcha tuman (shahar)larda “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi amalga oshirilishi hamda dasturdagi tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqi huzurida “Yoshlar – kelajagimiz” jamg'armasi, shuningdek, uning tuman va shahar filiallari tashkil etilishi belgilab qo'yildi [1]. Bu esa yoshlarning jamiyatdagi o'z o'rnini topishga kelajakdagi g'oya va rejalarini amalga oshishiga zamin yaratdi. Prezidentimizning “Bugungi kunda ijtimoiy ma'naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala bo'lib turibdi desak mubolag'a bo'lmaydi[2]” – deb aytgan so'zlari yoshlarni diniy ekstremizm va terrorizm balosidan ogohlantirishimiz, ularni bunday yot g'oyalar ta'siriga tushib qolmasliklari va bunday baloni oldini olish uchun qanday tizimli ijtimoiy profilaktik amaliy ishlarni amalga oshirish kerakligini davlat va jamoat tashkilotlari oldiga bir qator aniq vazifalar qilib belgilab berdilar. Bundan tashqari, Prezidentning joriy yil 19-martda Sirdaryo viloyatida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ilgari surgan 5 ta tashabbusi yoshlarning hayotida yangi sahifani ochdi. Bir yilga ham yetmasdan tashabbuslar yuksak darajada targ'ib etildi va natijasi ham samara berganligi isbotlandi. Qisqa vaqt davomida, yoshlarimizning ma'naviyaxloqiy tarbiyalarini o'stirish maqsadida Davlat miqyosidagi tadbir o'tkazildi. O'zbek yoshlarining jahon minbarlaridagi chiqishlari, olimpiadalar va turli-xil xalqaro konferensiyalardagi natijalari barchamizni quvontiradi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida ma'naviy-axloqiy tahdidlarga

qarshi kurashda ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyati tizimida bosh harakatdagi shaxs, pedagog, o'z shaxsiy potensiali va mahoratini ishga solgan holda talabalar bilan hamkorlikda ijodiy va hayotiy faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etsa, o'rganuvchilar uning barcha shakl va ko'rinishlarida real subyektga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zR Prezidentining «Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shartsharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. PQ-4996-son. 17.02.2021y.
2. А.Фишман. Искусственный интеллект: возможности и угрозы. ИТ Безопасность (it-world.ru). Журнал IT Manager. 01.06.2021
3. David Poole Alan Mackworth Artificial Intelligence: Foundations of Computational Agents, Cambridge University Press, 2010
4. Руслан Рахметов Искусственный интеллект в информационной безопасности/ www.securityvision.ru/blog/iskusstvennyy-intellekt-v-informatsionnoy-bezopasnosti/
5. “Kiber xavfsizlik muammolari va ularning eng yangi texnologiyalarda yuzaga kelish trendlarini o'rganish”, Dilmurod Rahkmatov.
6. Using Artificial Intelligence in Cybersecurity | Balbix